

ISSN 2181-922X

TIL VA MADANIYAT

# UZBEKISTAN

## LANGUAGE & CULTURE

# O'ZBEKISTON

2022 Vol. 2

[www.navoiy-uni.uz](http://www.navoiy-uni.uz)  
[www.uzlc.navoiy-uni.uz](http://www.uzlc.navoiy-uni.uz)

ISSN 2181-922X

# **O‘ZBEKISTON**

**TIL VA MADANIYAT**

# **UZBEKISTAN**

**LANGUAGE AND CULTURE**

2022 Vol. 2

[www.navoiy-uni.uz](http://www.navoiy-uni.uz)  
[www.uzlc.navoiy-uni.uz](http://www.uzlc.navoiy-uni.uz)

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

**Bosh muharrir:** Shuhrat Sirojiddinov  
**Bosh muharrir o'rinbosarlari:** Zaynobiddin Abdirashidov  
Qosimboy Ma'murov  
**Mas'ul kotib:** Ozoda Tojiboyeva

### **Tahrir kengashi**

Ahmadali Asqarov, Abdulaziz Mansur, Akmal Saidov, Akmal Nur, Adham Ashirov, Nizomiddin Mahmudov, Hamidulla Dadaboyev, Samixon Ashirboyev, Bahodir Karimov, Aftondil Erkinov, Baxtiyor Mengliyev, Uzoq Jo'raqulov, Sulton Normamatov, Murtazo Sayidumarov, G'aybulla Boboyorov, Nozliya Normurodova, Abdi Mamatov, Nodir Jo'raqo'ziyev.

### **Tahrir hay'ati**

Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Maria Sabtelni (Kanada)
Frederik Bressand (Fransiya)	Timur Kocaoğlu (AQSH)
Ingeborg Baldauf (Germaniya)	Almaz Ülvi (Ozarbayjon)
Mark Toutant (Fransiya)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Rochelle Almeida (AQSH)	Xisao Komatsu (Yaponiya)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Emek Üşenmez (Turkiya)
Valeriy S. Xan (O'zbekiston)	Abdulvahap Kara (Turkiya)
Eunkyung Oh (Janubiy Koreya)	Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Oqilxon Ibrohimov (O'zbekiston)	Dilorom Ashurova (O'zbekiston)
Shodmon Vohidov (Tojikiston)	Darya Jigulskaya (Rossiya)

“O'zbekiston: til va madaniyat” jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

**Email:** uzlangcult@gmail.com  
**Website:** www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

**Editor-in-Chief:** Shuhrat Sirojiddinov  
**Deputy Editors in Chief:** Zaynabiddin Abdirashidov  
Kasimbay Mamurov  
**Executive secretary:** Ozoda Tajibaeva

### Editorial board

Ahmadali Asqarov, Abdulaziz Mansur, Akmal Saidov, Akmal Nur, Adham Ashirov, Nizomiddin Mahmudov, Hamidulla Dadaboev, Samixon Ashirboev, Bahodir Karimov, Aftondil Erkinov, Bakhtiyor Mengliev, Uzoq Juraqulov, Sulton Normamatov, Murtazo Sayidumarov, Gaybulla Babayarov, Nozliya Normurodova, Abdi Mamatov, Nodir Jurakuziyev.

### Editorial Committee

Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Maria Subtelny (Canada)
Frederique Bressand (France)	Timur Kozhaoglu (USA)
Ingeborg Baldauf (Germany)	Almaz Ulvi (Azerbaijan)
Marc Toutant (France)	Tanju Seyhan (Turkey)
Rochelle Almeida (USA)	Hisao Komatsu (Japan)
Akram Habibullaev (USA)	Emek Üşenmez (Turkey)
Valeriy S. Khan (Uzbekistan)	Abdulvahap Kara (Turkey)
Eunkyung Oh (South Korea)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Oqilkhon Ibrohimov (Uzbekistan)	Dilorom Ashurova (Uzbekistan)
Shodmon Vohidov (Tajikistan)	Daria Zhigulskaya (Russia)

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

**Email:** uzlangcult@gmail.com

**Website:** www.uzlc.navoiy-uni.uz

## MUNDARIJA

### Lingvistika

#### **Yorqinjon Odilov**

Jamiyat, til va madaniyat.....6

#### **Muhayyo Hakimova**

O'zbek tilida "holat" ma'noli abstrakt nomlar.....18

#### **Меҳмет Джан**

Прошлое и настоящее алфавитов, используемых в  
тюркских республиках.....31

#### **Surayyo Ziyotova**

"Mehrobdan chayon" da ifodalangan ijtimoiy-siyosiy leksikalar.....44

### **Adabiyotshunoslik. Tarjimashunoslik**

#### **Bahodir Karimov**

O'zbek jadid nasri va Abdulla Qodiriy.....61

#### **Marg'uba Abdullayeva**

Paremik janrlarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari  
(tarixiy-nasriy asarlar misolida).....72

#### **Nodira Egamqulova**

Turkistonda milliy matbuot, adabiyot va adabiy til.....89

### **Tarix. Manbashunoslik**

#### **Shamsiddin Kamoliddin, Shoiraxon Saidjabbor**

O'rta asr Samarqand bozorlari haqida yangi ma'lumotlar.....104

# CONTENT

## Linguistics

### **Yorkinjon Odilov**

Society, language and culture.....6

### **Muhayyo Hakimova**

Abstract nouns meaning "situation state" in Uzbek.....18

### **Mehmet Jan**

Past and present alphabets used in the Turkic republics.....31

### **Surayyo Ziyotova**

Socio-political vocabulary expressed in the work

"Mehrobdan chayon" .....44

## Literature. Translation studies

### **Bahodir Karimov**

Uzbek jadid prose and Abdulla Qadiri.....61

### **Marguba Abdullaeva**

Ideological and artistic properties of paremiological genres

(on the example of historical and prose works).....72

### **Nodira Egamkulova**

National press, literature and literary language in Turkestan.....89

## History. Source studies

### **Shamsiddin Kamoliddin, Shoirakhon Saidjabbor**

New data on the *bāzārs* of the medieval Samarqand.....104

ADABIYOTSHUNOSLIK. TARJIMASHUNOSLIK  
LITERATURE. TRANSLATION STUDIES

## O'zbek jadid nasri va Abdulla Qodiriy

Bahodir Karimov<sup>1</sup>

### Abstrakt

Ushbu maqolada jadid adabiyotining muhim tarkibiy qismi bo'lgan nasriy asarlarga munosabat bildiriladi. Kichik va katta hajmli ayrim nasriy asarlarning g'oyaviy xususiyatlari tekshiriladi. Xususan, Abdulla Qodiriy ijodining ayrim qirralariga jadid adabiyoti kontekstida baho beriladi. Jadid adiblari, ayniqsa, ayni harakatning ilk pallasida yozgan nasriy asarlarida g'oyaviy-badiiy jihatdan o'zaro mushtaraklik, uyg'unlik kuzatiladi. O'zbek jadid adabiyoti ko'lami – kontesktida kuzatilayotgan Abdulla Qodiriy nasri – bu muhtasham nafosat qasri, ayni chog'da, har bir inson uchun ogohlik qo'ng'irog'i ekani haqida gap boradi.

**Kalit so'zlar:** *jadid adabiyoti, drama, hikoya, roman, pafos, obraz, poetik nutq.*

### Kirish

Odatda o'zbek jadid adabiyoti to'g'risida so'z ketganda ko'proq she'riyat va, ayniqsa, dramaturgiyadagi yangilanishlar borasida fikr yuritiladi. Holbuki, mumtoz o'zbek adabiyoti negizida asrlar bo'yi yashab kelgan epik tafakkur tarzi mohiyat e'tiboridan XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi jadidchilik harakati zamoniga kelib yangilandi.

Jadid nosirlari kimlar? O'zbek jadid nasriga xos tamoyillar nimalardan iborat? Qaysi o'zbek adibi o'z asarlari bilan poetik jihatdan yuksak bir martabaga ko'tardi? O'zbek jadid nasriga xos xususiyatlar qaysi asarlarda namoyon bo'ladi? Bunday savollarga javob kerak.

Ma'lumki, sho'ro zamonida juda ko'p o'rganilgan Hamza

---

<sup>1</sup>Karimov Bahodir Nurmetovich – filologiya fanlari doktori, professor, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

**E-pochta:** bahodirkarim66@gmail.com

**ORCID ID:** 0000-0002-9906-5183

**Iqtibos uchun:** Karimov, B. N. 2022. "O'zbek jadid nasri va Abdulla Qodiriy". *O'zbekiston: til va madaniyat* 2: 61-71.

(1889-1929) ijodiy merosida she'riy va dramatik asarlar bilan bir qatorda publitsistik maqolalar va nasriy asarlar ham mavjud. Uning 1915-yilda "Yangi saodat" asari alohida kitob holida bosilgan bo'lib, janrini muallif "milliy ro'mon" deb ko'rsatadi. Garchand hajm va voqelik qamrovi e'tiboridan zamonaviy romanlar mezoniga mos kelmasa ham unda jadid adiblari nasriga xos tamoyillar – ilm-ma'rifatga da'vat, jaholatni qoralash kabi jihatlar mujassam topgani kuzatiladi. Inson saodatga, albatta, teran tafakkur, bilim olish, ilm-ma'rifat orqali erishadi, degan fikr ilgari suriladi asarda. Zotan, bu g'oyaviy yo'nalish dastlabki "Padarkush" (Behbudiy), "Baxtsiz kuyov" (Abdulla Qodiriy) singari jadid dramalari mazmuniga ham mos keladi. H.H.Niyoziy "Yangi saodat" asarida Olimjon tarjimayi holi, bolaligi, o'qishi va, umuman, oilaviy-ijtimoiy muhitdan so'z ochadi. "Muallifning romandan ko'zlangan asosiy maqsadi "jaholat va g'aflat zindoni"dan "dunyoning haqiqiy mohtobi" ma'rifat gulzoriga yetaklashdir. Bunga erishishning birinchi omili insonlarda ilm-ma'rifatga rag'bat, muhabbat uyg'otish bo'lsa, ikkinchisi, o'quv muassasalarini davr talablari asosida tubdan o'zgartirish zaruratidir" [Milliy uyg'onish ... 2004, 392]. "Yangi saodat"ning ayni g'oyaga yo'lantirilganini kitob holida bosilgan asarning eng bosh sahifasi – titul varag'ida berilgan:

*"O'qub tahsili ilm ayla, maorif sharbatin yutkil,  
Taningni jahldan qutqor, g'ami millat bila o'tkil",*

degan jadidona bayt ham namoyon qiladi [Ниёзий 1980, 124].

Jadid adabiyotining boshqa bir namoyandasi Abdurauf Fitrat (1883-1938) ijodiga yuzlansak ham ushbu zamon - milliy uyg'onish davri nasriga munosib misollar topiladi. "Hind sayyohi" yoki "Munozara" asarida ijtimoiy-maishiy masalalar talqin qilinadi. "Munozara" Buxorodagi eng bahsli-tortishuvli masala jadid va qadim munosabatlariga bag'ishlangan bo'lib, adibning "jadidchilik qarashlari"ning ifodasi sanaladi [Болтабоев 2007, 138-142].

Hamza yoki Fitrat nasriga yaqin pafos Cho'lponning (1897-1938) ilk nasriy asarlariga ham xos. "Qurboni jaholat" [Sadoyi Turkiston 1914], "Do'xtur Muhammadiyor" hikoyalari jadid nasrining dastlabki namunalari sifatida qarash o'rinlidir. Jaholat odamlarni oxir-oqibatda halokat, falokat, fojea, qurbon bo'lishga olib boradi. Jaholatdan qutulishning birdan bir yo'li – ma'rifat, ziyo, albatta. Hikoyalar mohiyatiga singdirilgan jadidona kayfiyat shunday adabiy g'oya tomon yo'lantiriladi. Cho'lpon "Do'xtur Muhammadiyor" asarini adabiyotshunos-cho'lponshunos N.Karimov "bevosita I.Gaspirali ta'sirida yozilgani"ga urg'u beradi [Karimov 2003, 56].

Cho'lponshunos D.Quronov yozadi: "Cho'lponning shaxs va



ijodkor sifatida, xususan, nosir sifatidagi shakllanishi jadidchilik g'oyalari ta'sirida kechganki, adibning ilk ijodini ulardan ayro holda tushunish va baholash maholdir. Yozuvchining "Qurboni jaholat" va "Doktor Muhammadiyor" hikoyalarida kuzatilgan g'oyaviy-ma'rifiy didaktikaning ustuvorligi, xarakterlarning g'oya nuqtayi nazaridagina talqin qilinishi-yu baholanishi, mavjud voqelikning sentimental yoxud ratsionalistik inkori kabi qator xususiyatlar ham shundan dalolatdir" [Қуронов 2004, 358]. Haqiqatan ham, "Cho'lpon Muhammadiyor timsolida o'zining, jadidchilarning ijtimoy ideallarini mujassam etadi".

XX asrning 10-yillaridagi o'zbek jadid nasri yangilanayotgan nasr, aynan "jadid" so'zining lug'aviy ma'nosiga, jadidchilik harakati-ning adabiy-nazariy mohiyatiga mos kelar edi. Zero, biz sanab o'tgan Hamza, Fitrat, Cho'lpon kabi adiblar qatorida o'zbek jadid nasri tarixida Abdulla Qodiriy (1994-1938) ijodi alohida o'rin tutadi. Zotan, bu adib ijodining avvalida mavjud bo'lgan bir qancha she'rlari yoki "Baxtsiz kuyov" dramasida ilgari surilgan ma'rifatparvarlik g'oyalari dastlabki nasriy asarlarida ham bor edi, albatta.

Aslida, ijodi XX asrning 10-yillari bilan bog'liq yozuvchi-shoirilar borki, ularning ijodini jadidchilik harakati g'oya va tushunchalariga bog'lamasdan tugal talqin qilib bo'lmaydi. Jadidlar faoliyatida she'riy, dramatik va nasriy asarlarida millat uchun qayg'urish, millatni ilm-ma'rifatga da'vat, xurofot va bid'atdan uzoqlashuvga chorlash motivlari asosiy o'rinni egallaydi. Yuqorida eslatilgani Cho'lponning "Do'xtir Muhammadiyor", "Qurboni jaholat", H.H.Niyoziyning "Yangi saodat", "Uchrashuv", Fitratning "Hind sayyohi", "Munozara" va Abdulla Qodiriyning "Juvonboz" hamda "Baxtsiz kuyov" kabi asarlarida jadidona kayfiyat yetakchilik qiladi. Albatta, bu tip asarlarning maydonga kelishida, mutaxassislar to'g'ri ta'kidlaganidek, chetdan Qrim, Ozarbayjon va tatar jadidlarining ham ta'siri kuchli bo'ldi. Abdulla Qodiriyning o'zi bu xususda shunday yozadi: "1913-yilda chiqqan "Padarkush" pyesasi ta'sirida, "Baxtsiz kuyov" degan teatr kitobini yozib yuborg'onimni o'zim ham payqamay qoldim (1915-yilda). Yana shu yilda tatarlarda chiqib turg'on hikoya va romanlarga taqlidan "Juvonboz" otliq hikoyachani yozib, noshir topilmog'onidan, o'zim nashr qilib yubordim" [Қодирий 1996, 206].

Shu ma'noda Oybek: "Ilk asarlarida Abdulla Qodiriy tipik jadid edi. Ijodining birinchi davrlari ham burjua jadid adabiyoti va harakati bilan uzviy bog'liqdir. Asarlarining ideyasi jadidizm ideologiyasi bilan sug'orilgandir. Asarlarining mavzu-

lari, ideyalarigina emas, balki ularning formal tuzilishlari, badiiy xususiyatlari, darajalari ham jadid adabiyotining tipik namunalarini tashkil etadi” [Oʻzbek 1936, 3], deganda haqli edi<sup>1</sup>.

Oybek Abdulla Qodiriyning dastlabki sheʼrlari mohiyatini ham, “Juvonboz” va “Baxtsiz kuyov” nomli asarlarining gʻoyasini ham bevosita jadidchilikka bogʻlab tushuntiradi. “Juvonboz”-badiiy jihatdan yuksak emas, ammo unda Turkiston boylari va bolalari hayotining naqadar tubanlashib ketganligi namoyishi bor. “Turkistonning oʻz chirik odatlari – nasha, koʻknori, bachchabozlik, jaholat va boshqalar yetmaganday, mustamlakachi rus burjuaziyasi madaniyat nomi bilan mustamlaka xalqiga qimor-xona, alkagol, fohishaxonalar keltirildi” [Oʻzbek 1936, 4]. Insonni maʼnaviy tanazzulga olib boradigan bunday holatlar badiiy adabiyotda oʻz ifodasini topmasligi mumkin emas edi. Eslaylik, Behbudiyning “Padarkush” pyesasida aynan pivaxonalar bilan bogʻliq sahna bor. Yoki Choʻlponning “Kecha va kunduz” romanida Akbarali mingboshi va Miryoqub epaqa tez-tez borib turadigan, mustamlakachi ruslar tomonidan ochib qoʻyilgan fohishaxonani tasvirlaydigan epizodlar mavjud.

Abdulla Qodiriy esa haqiqatan ham, “Juvonboz” asarida yaramas, kasal odatga qarshi chiqadi. Turkiston oʻlkasida tarqalgan bu ifloslikdan Qodiriy juda qattiq nafratlangan. Aynan “Juvonboz” asari yozilayotgan bir davrda “Turkiston viloyatining gazetisi”da (1914-yil 24-iyun, 50) “Hayo” imzosi bilan “Julqunboy bilan mubohasa” degan maqola bosiladi. Aftidan, “Hayo” Julqunboyni taraqqiyparvar jadidlarga, zamonaviy gazeta-jurnallarga targʻib-tashviq etib yurgan koʻrinadi. Ammo Julqunboy taraqqiyparvarlardan birining yonida “bolasi birlan mast” boʻlib yurganini koʻrib qoladi. Taraqqiyparvarlardan koʻngli soviydi. Maqola muallifi Julqunboyga tanbeh maʼnosida bir-ikki iflosga qarab, butun taraqqiyparvarlar ustidan hukm chiqarish yaramaydi, degan soʻzlarni aytadi [Hayo 1914]. Oʻzini “men taraqqiyparvarman” deya tanishtirib, ammo aslida, oʻzini fahsh ishlarga urgan koʻzboʻyamachi munofiqlar oʻsha zamonlarda ham boʻlgan. Mirmuhsin Shermuhammad iborasi bilan aytganda: “Men dinchi” deb oʻziga yolgʻon ism bergan bir xoindan millatga qanday zarar

<sup>1</sup>Hozirda “Uygʻonish davri adabiyoti” termini bilan nomlanayotgan davr adabiyotshunosligimiz tarixida “Oʻzbek burjua adabiyoti”, “Jadid adabiyoti”, “burjua jadid adabiyoti”, “jadidlarning goʻzal adabiyoti” kabi atamalar bilan nomlangan. Qodiriyning “Juvonboz” va “Baxtsiz kuyov” asarini “Oʻzbek burjua adabiyoti” (1934) degan kitobiga kiritgan Abdurahmon Saʼdiy har ikki asarning “mafkuraviy ustanovkasi, tematikasi va plani”da “Padarkush”ning hamda ozarbayjon “burjua jadid adabiyotining” taʼsiri borligini aytadi.

tegsa, shuningdek, "men taraqqiychi" deb, o'rus marjasi ortidan tun-kun fohishaxonaga yugurib yurgan qisqa kiyimli milliy xuliganlardan-da shu darajada zarar tegadi!" [Mirmuhsin 1917].

Abdulla Qodiriyning maqsadi ham "Juvonboz"ni yozish orqali o'sha tuban odatlarning, "milliy xuligan" va "sharlotan"larning millat boshiga keltirayotgan zararini uqtirish edi. A.Qodiriy "Juvonboz"dagi ayrim sahnalar keyinchalik yozgan "Kalvak maxzumning xotira daftaridan" degan hajviyasida, "Mehrobdan chayon" romanining ayrim o'rinlarida badiiy aks ettirgan edi.

"Juvonboz"da adib ijodining dastlabki namunasida, har holda, Qodiriy iste'dodidan nishona bor. Oybek adibning ijodiy yo'lini tekshirar ekan, undagi asosiy tendensiyalarni, nafosatni aniq sezadi; goho davr adabiy tanqidchiligi talabi va mezonlari ichiga fikrini qamashga majbur bo'lsa, goho o'z ichki intuitiv idroki oqimida, badiiy sezim quvvatining inersiyasi bilan haqiqatni ham aytib o'tadi. "Juvonboz" va "Baxtsiz kuyov"lar mashqi tufayli yozuvchining qalami charxlanib bordi. "Uloqda" hikoyasida jiddiy realistik o'zgarish yuz berdi. Oybek yozdi: "Abdulla Qodiriy turmushni badiiy ko'rsatishda tez o'sadi. Nasrchilikda uning ustaligi mukammallashadi. 1916-yillarda yozilgan "Uloqda" nomli hikoyasi "Juvonboz" va boshqa asarlariga nisbatan tenglashtirmaslik darajada yuqori bir asar. Yozuvchi hikoya texnikasi, priyomlarini egallagan. Voqealarni ochish, bularning inkishofi va yechilishi Ovro'pa novella forma ravishidadir. Bu asarda jonli bo'yoqli obrazlar uchraydi. Kishilarning portreti aniq, qabartib beriladi... "Uloqda" hikoyasida tashviqotchining, voizning o'rnini san'atkor oladi" [Ойбек 1936, 6-7].

Darhaqiqat, Abdulla Qodiriyning jadidona ruhdagi "To'y", "Ahvolimiz", "Millatimga bir qaror!", "Fikr aylagil" degan she'rlari, "Juvonboz" hikoyasi va "Baxtsiz kuyov" pyesasidan keyin yozilgan "Uloqda" hikoyasi adibning voqelikni san'atkorona tasvirlashning realistik tamoyili tomon yuz burishi bo'ldi. A.Qahhor ta'biri bilan aytganda, "Yevropa adabiyoti gazi bilan o'lchaganda ham to'laqonli asarlar" yozdi. Jadidona ma'naviy-ma'rifiy muhitda maydonga kelgan "O'tkan kunlar" romani nafaqat Abdulla Qodiriy ijodining, balki jadid nasrining, yangi roman janrining gultoji sanaladi.

Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar" romanini yozish bilan o'zbek romanchilik maktabiga asos soldi. Romanning boshidagi bir qancha fasl dastlab "Inqilob" jurnalining 1923-1924-yilgi sonlarida bosiladi. Keyin 1925-1926-yillarda romanning har bir bo'limi alohida

kitob holida nashr etilib, qo'lma-qo'l o'qiladi. "O'tkan kunlar" yozilgan davr o'zbek xalqi uchun millatning erki, ozodligi, mustaqilligi, jahondagi o'rni masalasi hayot-mamot ahamiyatiga molik edi. Abdulla Qodiriy o'z davrining ilg'or bir ziyolisi sifatida Vatan va millat taqdiri ustida astoydil qayg'urdi, o'zicha najot yo'lini izladi. Zamon taloto'plari adib qalbini iztirobga soldi. "O'tkan kunlar" romani orqali xalqning milliy ongini uyg'otmoqchi bo'ldi, "tariximizning eng kir, qora kunlari" – yurtni mustamlaka balosiga giriftor etgan keyingi noahil "xon zamonlari" to'g'risida so'z ochib, bu ayancli haqiqatdan xalqqa saboq bermoqchi bo'ldi.

"O'tkan kunlar" romanining ma'no-mundarija doirasi nihoyatda keng. Unda xilma-xil insoniy taqdir, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy, oilaviy-ishqiy muammolar qalamga olingan. Biroq ular orasida yurtning taqdiri, mustaqilligi masalasi alohida ajralib turadi. Binobarin, el-yurtning mustaqilligi, birligi masalasi romanning asosiy pafosini tashkil etadi. Asarning bosh qahramonlari Otabek va Yusufbek hojilar shu yurt istiqloli, faravonligi, osoyishtaligi yo'lga hayotini, jonini tikkan fidoyi kishilar qiyofasida tasvirlanadi.

"O'tkan kunlar" – bamisoli ulkan va tiniq ko'zgu, unda o'zbek millatining muayyan tarixiy sharoit, vaziyatdagi turmushi, urf-odatlar, ruhiy-ma'naviy dunyosi, bo'y-basti, qiyofasi keng ko'lamda aniq, ravshan gavdalantiriladi. Romandagi uchlik – oshiq, ma'shuqa va ag'yor, bir qarashda, an'anaviy ishq dostonlarini ham eslatadi. Unda Otabek bilan Kumushning toza muhabbati, ishqiy kechinmalari, baxti va baxtsizligi juda zo'r mahorat bilan tasvir etiladi. Asardagi juda kam insonlar qalbidan chuqur joy oladigan bir "durri bebaho" – ishq-muhabbat tuyg'usiga doir inja tafsilotlar kitobxonni hayajonga soladi; Otabek bilan Kumushning saodatli onlaridan mahrum etgan fojeaviy sahnalar kishini chuqur o'yga toldiradi. Muallif oshiqlarning ishqiy sarguzashtlari bahonasida muayyan tarixiy davrni – Turkistonning rus bosqini arafasidagi ahvoli, qora kunlarini ko'z oldimizda gavdalantiradi. Abdulla Qodiriy Otabek bilan Kumushning ishq tarixini yozar ekan, ayni damda o'lkaning tutqunlikka tushishining bosh sababi jaholat, qoloqlik va o'zaro ichki nizolardir, degan fikrni g'oyat ustalik bilan asarning mazmun-mohiyatiga singdiradi.

Adib romandagi markaziy obrazlardan biri – Yusufbek hoji zimmasiga katta yuk yuklaydi. U o'zaro mahalliy ziddiyatlarning zararini yaxshi biladi, qipchoq qirg'inini qoralaydi, aksincha, bir millatning ikki qavmini ularni "chin yovg'a beriladigan kuch" uchun

ittifoqchi sanaydi. Noo'rin isyonga o'tlanayotgan olomonga qarata: "... Biz qipchoqqa qilich ko'targanda, o'ris bizga to'p o'qlaydir. Siz dunyoda o'zingizning yagona dushmaningiz qilib qipchoqni ko'rsangiz, men boshqa yovni har zamon o'z yaqinimga yetgan ko'raman", deb aytadi. Biroq hojining istagiga qarshi qirg'in bo'lib o'tadi. Buning ustiga ustak Otabek ham otasining bu ishda qo'li borligidan shubhalanib hojining ko'ngliga ozor yetkazadi. Yusufbek hojining o'zini oqlab masalaning tub mohiyatini tushuntirgandan so'ng aytgan quyidagi so'zlari bu shaxsning chindan ham yirik-ulug' ekanini yaqqol ko'rsatadi:

"Biz shu holda ketadigan, bir-birimizning tegimizga suv qo'yadigan bo'lsak yaqindirki, o'rus istibdodi o'zining iflos oyog'i bilan Turkistonimizni bulg'atar va biz bo'lsak o'z qo'limiz bilan kelgusi naslimizning bo'yniga o'rus bo'yindirig'ini kiydirgan bo'larmiz. O'z naslini o'z qo'li bilan kofir qo'lig'a tutqin qilib topshirg'uvchi biz ko'r va aqlsiz otalarg'a Xudoning la'nati albatta tushar, o'g'lim! Bobolarning muqaddas gavdasi madfun Turkistonimizni to'ng'uzxona qilishg'a hozirlang'an biz itlar Yaratg'uvchining qahriga albatta yo'liqarmiz! Temur ko'ragon kabi dohiylarning, Mirzo Bobur kabi fotihlarning, Forobiy, Ulug'bek va Ali Sino kabi olimlarning o'sib-ungan va nash'u namo qilg'onlari bir o'lkani halokat chuquriga qarab sudraguvchi albatta Tangrining qahriga sazovordir, o'g'lim! Gunohsiz bechoralarni bo'g'izlab, bolalar yatimxonalarini vayron qilg'uvchi zolimlar – qurtlar va qushlar, yerdan o'sib chiqq'an giyohlar qarg'ishiga nishonadir o'g'lim!..."

Ota va o'g'il suhbatida jarayonida aytilgan bu gaplar katta ijtimoiy mohiyatga ega. Hojining bu masalalarda o'z qarashi, o'z gapi bor. Shuning uchun uning fikrlari Otabekni uyalib yerga qarashga majbur etadi. Abdulla Qodiriy romanda o'zbekning sokin oilaviy hayot tarzini ham, kundosh kelinlar orasidagi o'zaro nizolar va ularning yechimini ham juda ishonarli, mahorat bilan tasvirlaydi.

Romandagi har bir qahramonda joziba bor; ularning ko'ngli, ko'zi, ma'naviy qiyofasi ko'zga ko'rinib turadi; yurak urishlari eshitiladi. Asosiy, ikkinchi darajali va hatto epizodik timsol-obrazlarning fikrlari teran, mulohazalari hikmatlar bilan to'yingandir. Rahmat, Akram hoji, Oysha buvi, Oybodoq, Ali va boshqa qator epizodik obrazlar o'zining yorqin qiyofasi hamda mantiqan kuchli so'zlari bilan esda qoladi.

Asar avvalidagi bir yig'inda majlis ahli Turkistonning o'sha paytdagi holatini tahlil qiladi. Ziyo shohichi: "Bizning shu holga tushishimiz o'z fe'li-xuyimizdan", deydi. Otabek esa ijtimoiy tubanlikning sababini ittifoqsizlikda, o'zaro nizolarning avj olganida,

“buzg’unchi va nizochi unsurlar tomir yoyib, har zamon sodda xalqni halokat chuquriga qarab” tortishida, deb biladi. Otabek XIX asr oxiridagi Turkistonda kechayotgan ahvolga doir “chuvalgan ipning uchini topib bergandek” bo’ladi. Darhaqiqat, xalqning obod va ozod turmushini dil-dildan istagan Abdulla Qodiriydek bir insonning ma’naviy-estetik dunyosiga ham bunday fikr-mulohazalar begona emas, albatta.

Adibning badiiy so’zida ontologik-umrboqiylik jihatidan betakror joziba bor; shu bois “O’tkan kunlar”ni necha topqir o’qisa ham odam to’ymaydi; qayta mutolaaga ehtiyoj sezaveradi. Roman o’quvchini zeriktirmaydi. Qayta o’qish jarayonida asarning yangi qirralari kashf etiladi. Bu hol, tabiiyki, adibning obraz yaratish mahoratiga, inson qalbini chuqur anglashiga daxldor hodisadir. Zero, ko’rkam adabiyotdek san’at dunyosida poetik nutq muhim sanaladi; so’z vositasida manzara, ruhiyat va obraz chiziladi; “umr – otilgan o’q ermish”, “o’rinsiz chiransang, beling sinadi” singari hikmatlar bayon etiladi. Barchaga ayon bu haqiqat badiiy adabiyotning eng murakkab alifbosidir. So’z vositasida obraz yaratish yuzasidan ezmalanib, biljirab o’tirishga zarurat yo’q. Ammo Abdulla Qodiriy so’zida insonni o’ziga bog’lab turadigan, insonni o’ziga ohanrabodek tortib turgan quvvat bor. Buni o’quvchi sezmasligi mumkin emas. Aynan so’zning ta’siri bois Kumush o’lgan sahnada yig’laydi kitobxon. Aytmoqchi, bu epizodning o’zi yig’lab yozilgan. Demak, adibning titragan, ichikkan, o’ksigan yuragi shu sahifalarga ko’chgan. Badiiy ijoddagi bir qonuniyat shuki, mujmal tasavvurlar mujmal ifodalanadi; yig’lab yozilgan sahifalar yig’lab o’qiladi. Chinakam adibning estetik dunyosi, san’atkori ijodkor qalbi ana shunday sahifalarga muhrlanadi.

Abdulla Qodiriy sohir qalami ostidan chiqqan aksar toza qahramonlarning ich-u toshi jozibali, suyukli, ta’sirli. Chunki adib so’z so’zlashda uzoq andishaga boradi; quruq bayon o’rniga voqelikni, insonni tasvirlashni muhim sanaydi. Bevosita badiiy asarlaridan olingan misollardan tashqari adibning turli maqolalarida aks etgan adabiy-estetik qarashlarida ham o’sha konsepsiya o’zining teran ifodasini topgan. “Yozg’uvchilarimizga” nomli maqolasida: “So’z qolip, fikr uning ichiga qo’yilgan g’isht bo’lsin”, degan maslahatni beradi. So’ngra aynan so’z so’ylash to’g’risida quyidagi e’tiborli fikrlarni bayon qiladi: “So’z so’ylashda va ulardan jumla tuzishda uzoq andisha kerak. Yozuvchining o’zigina tushunib, boshqalarning tushunmasligi katta ayb. Asli yozuvchilik aytmoqchi bo’lgan fikrni hammaga barobar anglata bilishda, oraga anglashmovchilik solmaslikdadir. Bundan tashqari, fikrning ifodasi xizmatiga yaramagan so’z va jummalarga

yozuvda aslo o'rin bermasligi lozim". Badiiy ijod tabiatiga tegishli bunday falsafiy fikr-mulohazalar barcha jadid adiblari asarlari tarkibida ham uchraydi va bu maslahatlar eskirmaydigan haqiqat sanaladi.

Abdulla Qodiriy romanlarini o'zbek adabiy tilining zamonaviy ko'rinishda shakllanayotgan bir davrda yozdi. Adabiy tilning rutbasi, maqomi yuksalishida adibning xizmati katta bo'ldi. Zero, til millatni birlashtiruvchilik qudratiga ega qadriyatdir. Qodiriyshunos olimlar fikriga e'tibor berilsa, Abdulla Qodiriy toshkentlik bo'la turib o'z romanlarida mahalliy sheva unsurlarini umuman qo'llamaydi. Hatto qahramonlarining nutqini individuallashtirishda ham boshqa badiiy vositalardan foydalanadi. Adib o'z asarlarida butun mahorati bilan o'zbek adabiy tilining boyligini, o'zbek tilining keng imkoniyatlarini namoyish ham qiladi. Masalan, yozuvchining "O'tkan kunlar" romani tarkibida keladigan: "Ul turg'on joyida qoziqdek qoqilib qolg'on edi", "Kechaning qarong'iligi ustiga mevalarning quyuq yaproqlari qo'shilib, bu maydon ayniqsa Otabekning hozirgi ko'ngliga yaqinlashib kelar edi" kabi ifodalarda "q" tovushining takroridan, "Kishi Otabekni o'tquzg'ach, tokchadan sopol lagan bilan qovuqni olib chaqmoq surtdi. Sham' yoqildi. Bu kishi qirq yoshlar chamaliq, qonsiz yuzlik, siyrakkina soqollik, qo'y ko'z, ko'b vaqt madrasa riyozatini chekkannamo, qotma, uzun bo'ylik bir odam edi" kabi misollardagi joziba har bir o'quvchi e'tiborini tortadi. Shuningdek, "Tana buzoqning turqi tuqg'anig'a tamg'a" yoki "...oldidagi ovni ko'rmay, uzoqdagi yovni ko'radi", "Xonning qo'yini boqish uchun, qovoqlarni belga taqish uchun...", "Endi ko'rsam miltiqning o'qidek, pushti gulning to'qidek kelinim bor ekan" kabi yuzlab xalqona iboralar ham adib qahramonlari nutqining ta'sirchanligini kuchaytiradi. Bir o'rinda Oftob oyimning egachisini: "Yoshi ellidan oshqan, kulgusi ichiga to'lub toshqan bir xotun..." tarzidagi qofiya bilan tavsiflaydi.

Abdulla Qodiriy bejiz: "O'zbek tili kambag'al emas, balki o'zbek tilini kambag'al deguvchilarning o'zi kambag'al. Ular o'z non-donliklarni o'zbek tiliga to'nkamasinlar", degan fikrni aytgan emas. Aynan o'zbek tilining naqadar boy imkoniyatlarga egaligini asarlari bilan isbotladi. Qolaversa, ma'rifatli bir ziyoli sifatida o'zbekning so'zi uchun, adabiy tilning istiqboli uchun qayg'urdi. Bu chin haqiqatni biz har doim esda tutmog'imiz lozim.

"O'tkan kunlar" xayoliy va hayotiy omillar uyg'unligida maydonga kelgan ulkan bir ma'naviyat qasriki, uning ichkarisiga kirgan odam insoniyat abadiyatiga daxldor tushunchalarning badiiy talqiniga, eng nafis his-tuyg'ularning betakror tasviriga, o'zaro

chambarchas bog'langan ijtimoiy va individual holatlar zanjiriga duch keladi; aqli hayron qoladi.

Zero, Abdulla Qodiriy ikkinchi yirik asari "Mehrobdan chayon" romani to'g'risida ham shunday muhim fikrlarni bayon qilish mumkin.

### **Xulosa**

